

KELAJAK ISTIQBOLI O'Z QO'LIMIZDA

A.S.Jarkinova

Bo'stonliq tumani IIB XPB CFMG kata inspektori podpolkovnik

Rixsiboyeva Dilnavoz

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mamlakat rivoji uchun faqatgina davlat boshqaruvidagi mutasaddi shaxslar emas, balki shu vatanda istiqomat qiluvchi jamiyki insonlar mas'uldirlar zero vatan barchamizniki. Bu diyorda ajdodlarimiz yashagan, hozir biz yashayapmiz, bizdan keyin avlodlarimiz yashaydi. Shu zamin, shu tuproq, shu vatan, ma'naviy va moddiy me'ros avlodlarimizga qolajak*

Kalit so'zlar: *mamlakat, mutasaddi, xalq, kadr, iqtisodiyot, inflatsiya, xorij, migrant, x bed, texnologiya, kiber jinoyat, globallashuv, mafkura, G-7, Yevropa Ittifoqi, Germaniya, Ulug' Vatan Urushi, Yaponiya, samuraylar, Perl-Harbor, Herosima, Nagasaki, atom bomba, inqiroz, sunami, jadidlar, vertual olam, xokimiyat, ligitimlik, siyosat, resurs.*

Xalqimizda vatan ostonadan boshlanadi degan naql bor. Bu gap bejiz aytilmagan. Xaqiqatdan xam vatan ostonadan boshlanadi. Vatanga muxabbat esa oiladan boshlanadi. Insonning vataniga bo'lgan mehr – muxabbatining negizida oilasida olgan tarbiyasi aks etadi. U bolaligidan kindikqoni to'kilgan zaminini sevib ulg'ayadi. Yurtdoshlariga nafi tegadigan, vatani uchun kerakli kadr bo'lib yetishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ming afsusk bunday yoshlarimizning soni kundan – kunga kamayib bormoqda. Bunga sabab qilib mamlakat iqtisodiyotidagi salbiy o'zgarishlar, inflatsiyaning ortib ketishi, ishsizlikning ortib ketishi kabi birqancha iqtisodiy va ijtimoiy xolatlar sabab bo'lmoqda. Yana bir og'riqli nuqtamiz shuki; hozirgi kunda yoshlar orasida xorijiy tillarni o'zlashtirib, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi Dunyoning rivojlangan davlatlariga chiqib ketishni o'z oldiga reja qilib qo'rganlar. Xech bo'lmaganda majburiy ta'limni yakunlagach ish izlab migrant sifatida Rossiya Federatsiyasiga chiqib ketishmoqda. Albatta chet tilini o'rgangan inson xorijiy mamlakatlar bilan o'zi yashab turgan vatanidagi jarayonlarni solishtiradi, iqtisodiy va ijtimoiy xolatlarni taqqoslaydi va natijada u chet davlatga chiqib ketishga qaror qiladi. Bundan tashqari yoshlarning yana bir qismi onson pul topish maqsadida x bed va shunga o'xshash noqonuni o'yinlarni qurboni bo'lishmoqda. Texnologiyaning rivojlanishi natijasida globallashuvning salbiy tarafi o'laroq ayrim qo'shtirnoq ichidagi uddabiron yoshlar tomonidan amalga oshirilayotgan kiberjinoyatlar ham kuzatilmoqda. Bunday jarayonlarga nima sabab bo'lmoqda, kim aybdor? Albatta o'zimiz. Biz moddiy jixatlarga ko'p e'tibor berganligimiz tufayli ma'naviyatimizni, o'zligimizni, bir so'z bilan aytganda oltinga teng mafkuramizni unutib borayotganimiz uchun ham vatanga bo'lgan muhabbatimiz yo'qolib bormoqda.

Hozirgi kunda yoshlarimiz o'z kelagaklarini ko'rayotgan rivojlangan G-7 davlatlarni yaqin tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yoshlar orasida eng ko'p tilga olinayotgan Yevropa qit'asining eng rivojlangan davlatlaridan biri, eng asosiysi "Yevropa Ittifoqi" ning yirik ustuni Germaniya davlati. 1245 – yil "ulug' Vatan Urushi" nomi bilan tarixga kirgan ikkinchi jaxon urushi yakunida SSSR ning armiyasi Nemis armiyasini ta'qib qilib Germaniya davlatini afgor xolatga keltirganlar. Biroq bugun bu davlat o'z fuqarolari, Ukrainadan kelgan qochqinlar, bundan tashqari "Yevropa Ittifoqi" dagi ko'makga muxtoj davlatlarga har tomonlama yordam ko'rsata oladigan qudratli mamlakat darajasiga chiqdi. Germaniya Federativ Respublikasi yalpi ichki maxsuloti bo'yicha 4,117 tirilyon AQSH Dollirini tashkil qilgan holda dunyoda 4 – o'rinni egallagan. Bu ko'rsatkich axoli jon boshiga 49692 AQSH Dollirini tashkil qiladi Respublikamizdagi abituriyentlar va talabalar Yaponiya davlatining nufuzli universitetlariga xujjat topshirmoqdalar. Mexnat va sayoxat uchun vatandoshlarimizning Yaponiya davlatiga tashrifi yaqin 5 – 7 yilda sezilarli darajada ko'paygan. Ikkinchi Jahon urushida eng ko'p talofat ko'rgan davlatlardan biri Yaponiya davlati edi. 1941 – yilning 7 – dekabr kuni Yapon Samuraylari AQSH ning harbiy floti joylashgan Perl-Harborga daxshatli xujum qilishi natijasida AQSH armiyasi tomonidan Yaponiyaning Herosima va Nagosaki shaxarlariga Atom Bombasi tashlandi. Bu qaqshatqich zarbadan so'ng Herosima va Nagosaki xududlarida aholi soni kamaydi. Atmosferaning buzilishi natijasida o'lim yana kuzatildi. Afgor xolatga kelgan Yaponiya davlati 15 yil ichida inqirozdan chiqib ketdi. Hozirgi kunda Jahon bozoridagi eng sifatli maxsulotlarni Yaponiya davlati ishlab chiqaradi. "sunami" lar kuzatilishi natijasida yiliga milyardlab zarar ko'rsa ham yetakchi davlatlar qatorida har doim tilga olinadi. Yaponiya kichik mamlakat bo'lishiga qaramay, bu yerda dunyodagi eng katta narsalar bor. Masalan bu yerda dunyodagi eng qimmat ko'ngilochar bog' Disner Sea bor, shuningdek dunyodagi eng baland amerikancha tepaliklar mavjud. Tokioda dunyodagi eng rivojlangan metro tizimi mavjud, eng katta temiryo'l tizimi ham shu yerda joylashgan. bu yerda 1941 – yil Adolf Gitler boshchiligida nems armiyasi SSSR ga urush ochishi natijasida Rossiya hududidagi ko'plab zavodlar O'zbekistonga ko'chirib kelingan. Toshkent Shaxri va Toshkent viloyati hududlarida ko'plab zavodlar ishga tushurilgan. Jaxon urushida yutqazmadik. SSSR dan mustaqil davlat sifatida ajralib chiqqanimizga ham 30 yildan oshdi. Biz xali – hanuz rivojlanayotgan davlatlar safidamiz. Chunki biz bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilmayapmiz. Ikkinchi Jaxon Urushidagi tinchligimiz uchun kurashgan, yetimlarning boshini silagan ajdodlarimizning qaxramonlik va oliyjanob xislatlarini faqatgina tarix sifatida eslaymiz, Jadidlarimiz bilan faxrlanamiz, biroq o'gitlarini kelajakga tadbiiq qilmaymiz. Agar biz harakat qilmasak hozirgi kunimizdan kelajakga nima tarix bo'lib qoladi? Yuqorida yoritilgan rivojlangan davlatlar inqirozdan chiqib ketish uchun bir davlat – bir xalq bo'lib, borini o'rtaga tashlab xarakat qilganlarю Ular orzu qilgan sharoyitda hozir avlodlari yashashyapti. Biz qachon uyg'onamiz, qachongacha tarix bilan yashaymiz? Axir dunyoda ikkinchi Renessansni boshlanishiga sabapchi bo'lgan

bobolarimizning qoni tomirlarimizda jo'sh urib turibdiku. Nima uchun o'z vaqimizni keraksiz bo'lgan vertual o'yinlar va shu kabi arzimas jarayonlar uchun qurbon qilishimiz kerak, nima uchun xorijga ketishni o'ylashimiz kerak? Hamma o'zi bilan ovvora bo'lsa vatan rivojlanmaydi. E'tiborsiz qolish oqibatida inqirozga yuz tutadi. Atrofga bir oz axamyatli bo'lib, vatan menga nima berdi deb emas, men vatanimga nima bera oldim deb yashasak, barchamiz bir xalq bo'lib vatanimizning ravnaqi yo'lida bel bog'lasak, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsak porloq kelajakga albatta erishamiz Bundan tashqari o'sib – unib kelayotgan yoshlarning ongiga milliy mafkura, va ma'navyatni singdirgan holda qalbida vatanga bo'lgan muhabbatini yanada yuksaltirmog'imiz lozim. Shundagina vatanimiz ildam taraqqiy etadi, xalqin xokimiyatga nisbatan ligitimligi va siyosiy jarayonlarga bo'lgan e'tibori, faolligi ortadi.

Vatanimiz xamisha tinch. Shu osoyishtalikdan foydalanib mavjud resurslarni ishga solmog'imiz lozim. Chunki vatan hammamizniki, uni sevis, asrash, zamonga mos ravishda rivojlantirish barchamizning burchimiz. Shu sababdan ham vatanimizning ertasi uchun bugun harakat qilaylik zero, ertamizning yoshlari shu vatanda yashayotganidan faxr xissini tuysinlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Germaniya>
2. <https://odam.uz/Qiziqarli/kun-chiqar-mamlakat-yaponiya-haqida-ajoyib-va-garoyib-malumotlar>
3. <https://daryo.uz/2021/12/07/galabaga-asos-bolgan-maglubiyat-aqshni-ikkinchi-jahon-urushiga-olib-kirgan-perl-harbor-fojiasi>
4. <https://daryo.uz/2021/12/07/galabaga-asos-bolgan-maglubiyat-aqshni-ikkinchi-jahon-urushiga-olib-kirgan-perl-harbor-fojiasi>
5. <https://kun.uz/uz/71177435?q=%2F71177435>